

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA TABIAT BILAN TANISHTIRSH MAZMUNI

СОДЕРЖАНИЕ ПРИРОДЫ В ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ

THE CONTENT OF NATURE IN THE PREPARATION OF CHILDREN FOR SCHOOL

JDPI katta o'qituvchisi: Norqo'ziyeva Manzura Abduraxmanovna

1-kurs maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Abdurazaqova Umidaxon

Annatatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlar: ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), og'zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat) metodlaridan va xilma-xil formalardan: ta'limiy faoliyatlardan, ekskursiyalardan, kundalik hayotga mehnatdan, kuzatishlardan, yer maydonchasi va tabiat burchagidan o'yinlardan foydalanish metod va usullar yoritilgan.

Аннотация

Статья в статье в процессе знакомства с детьми в области дошкольного учреждения: демонстрация (показ, просмотр, диаревые и фильмы), практический (метод игры, труд, простой опыт), устные упражнения (история учителя, методы чтения, разговоры, Чата, жизнь, жизнь, наблюдения, методы и методы удовольствия и методы земли и методы охватываются.

Annotation

Article in the article in the process of acquaintance with children in the field of a preschool institution: demonstration (display, viewing, Meat and films),

practical (game method, labor, simple experience), oral exercises (teacher history, reading methods, conversations, chat, life, life Life, observations, methods and methods of pleasure and methods of the Earth and methods are covered.

Kalit so'zlar: ko'rgazmali, kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilmlar, amaliy, o'yin, mehnat, oddiy tajribalar, og'zaki, tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat.

Ключевые слова: жертвы, наблюдения, взгляды, дифм, фильмы, практическая, игра, труд, простой опыт, прочитайте историю педагога, разговор.

Key words: victims, observations, views, diplomas, films, practical, game, labor, simple experience, read the history of the teacher, conversation.

Maktabgacha ta'lim sohasida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, Prezidentimiz tomonidan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2707-sonli Qaror (2016-yil, 29-dekabr), «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli Farmon (2017-yil 30-sentabr), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi 528-sonli Qarori (2017- yil, 19-yo'l), "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi" kabi rasmiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida o'rin egallamoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlar: ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), og'zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat) metodlaridan va xilma-xil formalardan: ta'limiy faoliyatlardan, ekskursiyalardan, kundalik hayotga

mehnatdan, kuzatishlardan, yer maydonchasi va tabiat burchagidan o'yinlardan foydalaniladi. Natijada bolalarda bilimlarni egallash malaka va ko'nikmalarni hosil qilish qobiliyatlarini o'stirish ilmiy dunyoqarashlarni axloqiy sifatlarini xulq-atvorlarini shakllantirishga erishiladi. Tabiat bilan tanishtirish metodlaridan ko'rgazmali metodlar: Kuzatishlar. Kuzatish atrof olam predmetlari va hodisalarini maqsadga muvofiq rejali idrok etishdir. Kuzatish murakkab bilim faoliyati bo'lib unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Barqaror diqqat talab etiladi. Kuzatilayotgan hodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi va malakalri muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan, tarbiyani bir qator vazifalarni hal etadi: bolalarda tabiat haqida bilimni shakllantiradi. Kuzatishni o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi. Predmet va hodisalarning xususiyati hamda sifatleri haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan qisqa muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar qismlarning shakli, rangi, kattaligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, satxining harakatini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri ular chiqaradigan tovushlarni ham o'rganadilar va hokazo. O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamgarilishi uchun kuzatishning ancha murakkab turi uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. bunda bolalarga obyektning kuzatilayotgan holatini ilgari bilan qiyoslashga to'g'ri keladi. Bu kuzatishlar davomida bolalarning zehni va kuzatuvchanligi o'sadi. Analiz qilish, qiyoslash, xulosa chiqarish jarayoni takomillashadi. Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o'simlik va hayvonlar bilan ob-havo bilan kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirishda tashkil etiladi. Kuzatishlar ta'limiy faoliyat va ekskursiyalarda, sayrlarda, tabiat burchagida va shu kabi joylarda olib boriladi. Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish: bu kuzatishlar o'rta guruhdan boshlab o'tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish bir obyektни kuzatishdan ko'ra ancha murakkabroqdir. Tarqatma material sifatida o'simliklar hamda ularning qismlari: bargi, mevasi, va urugi, shoxlari, sabzavot va mevalardan foydalanish mumkin. Rasmlarni ko'rish, kinofilmlar va diafilmlarni namoyish etish. Bu metodlardan foydalanish xilma-xil vazifalarni hal qilishga:

tasavvurlarni aniqlash va konkretlashtirish bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish estetik idrokni tarkib toptirishga yordam beradi. Rasmlarni ko'rish: rasmlar tabiat hodisalarini batafsilroq kurish, diqqatni uzoq muddat shularga qaratish imkonini beradi, buni esa ko'pincha tabiatni bevosita kuzatishda tabiatning dinamikligi hamda o'zgaruvchanligi tufayli amalga oshirishning imkoni bo'lmaydi. Bundan tashqari ko'pgina hodisalarni bevosita kuzatish mumkin emas. Masalan, yovvoyi hayvonlar, janubiy va shimoliy o'lkalarning hayvonlari bilan bolalarni asosan rasmlar orqali tanishtirish mumkin. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik syujetli predmetli, shuningdek, badiiy rasmlardan foydalaniladi. Didaktik syujetli va predmetli rasmlar – bolalarni o'qitishda ko'rgazmali vosita sifatida maxsus yaratilgandir «Yilning to'rt fasli», «Uy hayvonlari», «Yovvoyi hayvonlar», «O'tsimon o'simliklar» va shu kabi rasmlar seriyasi shular jumlasidandir. Bulardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Badiiy rasmlarni faqat maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan ko'rish maqsadga muvofiqdir. O'quv ekrani maktabgacha taqlim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda diafilmlar, kinofilmlar va telefilmlardan foydalaniladi. O'quv ekrani bolalarda tabiat hodisalarining dinamikasi: o'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi kattalarning mehnati haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Qisqa muddat ichida uzoq vaqt bo'lib o'tgan hodisalarni ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa bilimlarni yanada muvaffaqiyatliroq egallashga yordam beradi. Syujetli diafilmlar, kinofilmlar va telefilmlar syujetining qiziqarliligi bilan bolalarda alohida qiziqish uyg'otadi. Bu bilimlarning faol idrok etishga yordam beradi. Ekrandagi hodisalarga alohida munosabat uyg'otadi. Syujetli diafilm kinofilm va telefilmlardan turli maqsadlarda bilimlarni konspektlashtirish, u yoki bu hodisani xarakterlovchi muhimroq xususiyatlarni ajratib ko'rsatish, bilimlarni kengaytirish tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bulishni shakllantirish maqsadlarida foydalaniladi. Amaliy metodlar. O'yin. Tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma xil o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu o'yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar. Bolalarni tabiat

bilan tanishtirishda didaktik xarakterli va ijodiy o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, musitahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalarni umumlashtirish hamda klassifikatsiya qilishga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar, xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi. Bolalarni mavjud bilimlardan yangi sharoitlardan foydalanishga o'rgatadi. Turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi. Lug'atni boyitadi. Bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. O'yin mashqlari predmet va hodisalarni sifati hamda xususiyatlariga ko'ra farqlashga o'rgatadi. Kuzatuvchanlikni o'stiradi. Bu o'yinlar 89 butun guruh bolalari bilan yoki ularning bir qismi bilan o'tkaziladi. O'yin mashqlari kichik va o'rta guruhlarda alohida ahamiyatga ega. Katta guruhlariga esa u ta'limiy faoliyatning bir qismi hisoblanadi. Harakatli o'yinlar. Tabiatshunoslik xarakteridagi harakatli o'yinlar hayvonlarning xatti-harakati ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog'liq. Bolalar bu o'yinlarda harakatlarga tovushlarga taqlid qilib bilimlarni chuqurroq egallaydilar. O'yindan zavqlanish bolalardagi tabiatga bo'lgan qiziqishni chuqurlashtiradi. Ijodiy o'yinlar. O'yinda bolalar ta'limiy faoliyat, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan tasavvurlarni aks ettiradilar. Kattalarning tabiatdagi mehnati haqidagi bilimni egallaydilar. Bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi. Ular kattalarning tabiatdagi mehnatining ahamiyatini anglab oladilar. Tabiatdagi mehnat. Bolalar mehnat obektlari o'simliklarning xususiyatlari va sifatleri ularning tuzilishi ehtiyojlari rivojlanishining asosiy bosqichlari o'stirish usullari o'simliklar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlar haqida hayvonlar, ularning tashki ko'rinishi ehtiyojlari, harakat qilish usullari, xatti-harakatlari, hayot tarzleri va uning mavsumiy o'zgarishlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ular yashash muhiti o'rtasida mutanosiblik o'rnatishni hayvonning tabiatdagi hayot tarzi va ularni tabiat burchagida parvarish qilishni o'rganadilar. Mehnatni tashkil etish shakllari va ularga rahbarlik qilish metodikasi maktabgacha ta'lim davomida murakkablashib boradi. Murakkablashish bolaning yosh imkoniyatlari, shuningdek, mehnat faoliyatining o'sishi tufayli aniqlanadi. Og'zaki metodlar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda

tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishdan suhbatdan foydalaniladi. Og'zaki metodlarda foydalanishda tarbiyachi bolalarning nutqini tushunishga bo'lgan qobiliyatlarini uzoq muddatli ixtiyoriy diqqatlarini va so'z orqali berilayotgan mazmunga diqqatni qarata olishlarini, shuningdek, bolalarda muhokama, aniqlash, tizimlashtirish predmeti bo'luvchi u yoki bu hodisa yoki fakt haqida yorqin tasavvurlarning bor-yo'qligini e'tiborga oladi. Tarbiyachining hikoyasi. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalar nutqini eshitishi va tinglay olishi hikoya davomida uni anglab olishi og'zaki tasvir asosida yetralicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi hikoyasidagi voqea hodisalarni bir biriga bog'liqligi hamda munosabatlarini aniqlash hamda tushunishi hikoya mazmunidagi yanglishlikni o'zining avvalgi bilim bilan qiyoslab ko'rishi lozim. Suhbat. Didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga – oldindan o'tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlarga bo'linadi. Bu suhbatlar mazmunan turli darajada bo'lishi mumkin: birovlar kuzatiladigan obektlarni tor doirada 90 kuzatgandan so'ng, boshqalari hodisalarning keng doirasini qamrovlari hodisalarning keng doirasini qamrovchilarni – bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar hayoti, hayvonlar, kishilarning mehnati haqidagi bilimlarini tizimlashtirish maqsadida o'tkaziladi. Badiiy adabiyotni o'qish. O'z mazmuniga ko'ra ilmiy bo'lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtida san'atning bir turidir. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilish huquqini, kuzatuvchanlikni, bilimga bo'lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi. Ta'limiy faoliyat. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ta'limiy faoliyatlari bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda o'rab turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda izchil shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o'tadigan ta'limiy faoliyat larda guruhning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi. Asosiy bilim protseslari va bolalarning qobiliyatlari ma'lum tizim hamda izchillikda o'stiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yigilib boriladi. Ta'limiy faoliyatlar ularni aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi. Ta'limiy faoliyatning ta'limiy vazifasi. Bu bolalarga ta'limiy faoliyatlarda berilish yoki aniqlanishi hamda konkretlashtirilishi lozim bo'lgan bilim

hajmidir. Bunga yana bolalarning tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishni ko'shish mumkin. Ta'limiy faoliyatda hal etiladigan tarbiyali vazifalar. Tabiatga ijobiy ehtiyotkorona, g'amxo'rona munosabatni shakllantirish. Tabiatga estetik munosabatni o'stirishga yo'naladi. Ta'limiy faoliyatga tayyorlanish hamda uni o'tkazishda ta'limiy faoliyatning tuzilishi metodini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limiy vazifalar xarakteri, tabiiy obyektning xususiyatlari, hamda bolalarning yoshiga bog'liqdir. Ta'limiy faoliyat davomida topshiriqni bajarishga barcha bolalarni jalb qilish muhimdir. Ta'limiy faoliyat oxirida qoidaga binoan tarbiyachi bolalarni malaka va ko'nikmalarini ularning ta'limiy faoliyatga munosabatlarini, qiziqishlarni pedagogik jihatdan baholaydi. Baholarning differensiyalashuvi bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi. Ekskursiyalar. Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi ta'limiy faoliyatlar turidan biridir. Ekskursiyalar vaqtida bola tabiat hodisalarini mavsumiy o'zgarishlarni tabiiy sharoitda kuzatish insonning hayot talablariga muvofiq tabiatni qanday o'zgarayotganini va tabiat kishilarga qanday xizmat qilayotganini ko'rish mumkin. Ekskursiya faoliyatlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar o'simlik va hayvonlar, ular yashaydigan muhitni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o'zgarishiga qiziqish o'sadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning xarakterini xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadilar. 91

Tabiatning go'zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg'otadi, o'chmas taassurot qoldiradi. Estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda yana tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, vatanga muhabbat shakllantiriladi. Ekskursiyalarni uyushtirish. Ekskursiyadan ta'limiy faoliyat turi sifatida o'rta, katta, hamda tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi. Kundalik hayotdagi ish. Ta'limiy faoliyat va ekskursiyalardagi kuzatishlarni kundalik hayotdagi, shuningdek, boshqa shakllari bilan uzviy aloqada olib boriladi. Sayrlar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun sayrlardan keng foydalaniladi. Sayrlar vaqtida tarbiyachi bolalar tasavvurining shakllanishi uchun o'zok muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo'ladi. Bolalarni

qorning erishi, kurtaklarning bo'rtishi, maysaning paydo bo'lishi va shu kabilar bilan tanishtiriladi. Sayrlarda tabiiy materiallar kum, loy, suv, muz, barg, va shu kabilar bilan xilma-xil o'yinlarni tashkil etish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi tajribasi yig'ladi, ular tabiat hodisalarini barcha aloqa va munosabatlarda tabiiy sharoitlarda ko'radilar. Sayrlar bolalarda qiziqish uyg'otadi, ularga katta quvonch, tabiat bilan munosabatda bulish esa lazzat baxsh etadi.

Xulosa shuki, maktabgacha yoshdagi bolani tabiat bilan tanishtirish orqali bolaning har tomonlama bilimlarini egallashi psixik jarayonlarning rivojlanishi, qobiliyatlarini o'sishi, ilmiy dunyoqarashini shakllanishi, axloqiy sifatlarni, ijobiy xulq odatlarini o'zlashtirilishi estetik hissiyotlarni rivojlanishiga erishishda yordam beradi. Tabiatning go'zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg'otadi, o'chmas taassurot qoldiradi, estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, vatanga muhabbat shakllantirib, tabiatni o'rganishga qiziqish (jonli va jonsiz tabiatga) o'sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қодирова Ф., Тошпўлатова Ш., Аъзамова М. Мактабгача педагогика. – Тошкент: Маънавият”, 2013.
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2013.
3. Roziqova M., Umarova K., Murodova N. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi o'yinlar majmuasi. – Toshkent, 2013.
4. Содиқова Ш.А. Мактабгача педагогика. – Тошкент, 2018.